

QABUL QILISHDAGI HUQUQ VA MAJBURIYATLARINGIZ



Ushbu ma'lumot quyidagi hollarda siz uchun mo'ljallangan:

- ✓ agar siz voyaga yetgan (18 yoshdan oshgan) bo'lsangiz;
- ✓ agar siz Litvada xalqaro himoya (boshpana deb ham ataladi) so'rab ariza berdingiz va endi siz xalqaro himoya so'rab ariza bergan shaxssiz.


Qabul qilish nimani anglatadi?	3
Siz nimalardan foydalanishingiz mumkin?	6
Tibbiy yordam olish huquqi	7
Bolalarning ta'lim olish huquqi	10
Mehnat qilish huquqi	11
Til kurslari va kasb-hunar tayyorgarligi	12
Xalqaro himoya so'rab ariza beruvchi shaxs ekanligingizni tasdiqlovchi hujjat	13
Siz qayerda joylashasiz?	13
Ariza beruvchi shaxsni ushlab turish mumkin bo'lgan holatlar	16
Qabul qilishdagi majburiyatlaringiz nimalardan iborat?	17
Agar majburiyatlaringizga rioya qilmasangiz, nima yuz beradi?	18
Agar vakolatli organlarning ruxsatisiz boshqa YI+ mamlakatiga borsangiz, nima yuz beradi?	19
Siz ruxsatsiz tark etgan YI+ mamlakatiga qaytarilganingizdan keyin nima yuz beradi?	19
Siz vakolatli organing qarori ustidan shikoyat qilishingiz mumkin	20
Siz yuridik yordam olishingiz mumkin	21
Aloqa ma'lumotlari	23

➤ QABUL QILISH NIMANI ANGLATADI?

Qabul qilish - bu vakolatli organlar xalqaro himoya so'rab bergan arizangizni ko'rib chiqayotgan davrda sizga ko'rsatiladigan yordamdir. Bu ushbu broshyurada tushuntirilgan qabul qilish sharoitlariga oid huquq va majburiyatlarni o'z ichiga oladi.

Litvada qabul qilish uchun mas'ul vakolatli organ Qabul qilish va integratsiya agentligi hisoblanadi. Boshpana haqidagi arizangizni ko'rib chiqish uchun mas'ul vakolatli organ esa Migratsiya agentligi hisoblanadi.

Davlat chegara xizmati yoki Qabul qilish va integratsiya agentligi xodimlari sizdan ushbu broshyuradagi ma'lumotlarni olganingizni tasdiqlashingizni va imzolashingizni so'rashadi. Agar biror narsa tushunarsiz bo'lsa, xodimlarga savollar bering.



Siz ushbu mamlakatda xavfsizsiz.

Bu yerda bo'lishingiz davomida Qabul qilish va integratsiya agentligi xodimlari sizga vaziyatingizga qarab, qabul qilish sharoitlari doirasida mavjud xizmatlar va yordam turlari haqida ma'lumot beradi.



Shuningdek, siz boshqa tashkilotlarga ham bepul murojaat qilib, ma'lumot va yordam olishingiz mumkin. Ushbu broshyuraning oxirida tashkilotlar ro'yxatini topishingiz mumkin.



Zarur hollarda, **tarjimon** sizga xodimlar bilan o'zingiz tushunadigan tilda muloqot qilishingizga yordam beradi. Tarjimon siz aytgan ma'lumotlarni boshqalarga oshkor qilmaydi. Tarjimonlar shaxsan, telefon orqali yoki onlayn tarzda ishtirok etishlari mumkin.

Boshpana berish tartibi va rioya qilishingiz kerak bo'lgan qoidalar haqidagi ma'lumotlarni alohida broshyuralardan topishingiz mumkin.

**Siz hozir Yevropa Ittifoqi+ (YI+) mamlakati hisoblangan Litvadasiz.
YI+ mamlakatlari quyidagilar:**



Yevropa Ittifoqining (YI) 27 ta a'zo davlati: Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Daniya, Estoniya, Finlyandiya, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Irlandiya Respublikasi, Ispaniya, Italiya, Kipr, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Malta, Niderlandiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Vengriya, Xorvatiya, Shvetsiya va Chexiya va



yana 4 ta davlat: Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya va Shveysariya.

Diqqat!

Ariza beruvchilar barcha YI+ mamlakatlarida qabul qilish sharoitlari doirasida o'xshash huquq va majburiyatlarga ega.

Boshpana so'rab ariza berish va YI+ning boshqa mamlakatlariga safar qilishga oid qoidalar mavjud.



Agar vakolatli organlar sizga boshqacha ma'lum qilmagan bo'lsa, siz boshpana so'rab ariza berishingiz va arizangizni birinchi bo'lib yetib kelgan YI+ mamlakatida ro'yxatdan o'tkazishingiz kerak.



Boshpana haqidagi arizangizni ko'rib chiqish uchun faqat bitta YI+ mamlakati mas'ul hisoblanadi. Litvadagi vakolatli organlar boshpana haqidagi arizangiz uchun qaysi YI+ mamlakati mas'ul ekanini aniqlash maqsadida belgilangan tartibga amal qiladi.



Siz Litvada qolishingiz kerak. Vakolatli organlarning ruxsatisiz YI+ning boshqa mamlakatiga bora olmaysiz. Agar ruxsatsiz ketib qolsangiz, bu salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Litvadagi boshpana so'rab bergan arizangizni ko'rib chiqish jarayoni to'xtatilishi mumkin. Boshqa mamlakatda harakatlanish erkinligingiz cheklanishi va qabul qilish sharoitlari doirasidagi ayrim xizmatlar bekor qilinishi mumkin.

SIZ NIMALARDAN FOYDALANISHINGIZ MUMKIN?

Vakolatli organlar xalqaro himoya so'rab bergan arizangizni ko'rib chiqayotgan davrda, shaxsiy va moliyaviy ahvolingizga qarab, sizga quyidagilar taqdim etiladi:



- tunash joyi



- shaxsiy gigiena vositalari



- oziq-ovqat yoki oziq-ovqat uchun pul mablag'lari



- kiyim-kechak



- kundalik xarajatlar uchun pul mablag'lari

Vakolatli organlar shaxsiy va moliyaviy holatingizni yaxshiroq tushunish uchun sizga savollar berishi mumkin.

TIBBIY YORDAM OLISH HUQUQI

Vakolatli organlar sizga zarur **tibbiy yordam ko'rsatilishini ta'minlaydi**. Bunga, masalan, hamshira yoki shifokor ko'rigidan o'tish, og'ir kasalliklar va surunkali holatlar bo'yicha tekshiruvdan o'tish, shifokor buyurgan dori vositalari, shuningdek ruhiy salomatlik bo'yicha yordamni o'z ichiga olishi mumkin.



Sog'lig'ingizda biror muammo bo'lsa, xodimlarga xabar bering.


Agar sizda shoshilinch davolanishni talab qiladigan og'ir holat yoki jarohat yuzaga kelsa, bu haqda xodimlarga xabar bering yoki 112 favqulodda yordam raqamiga bepul qo'ng'iroq qiling.



Siz shifokor yoki hamshira ko'rigidan o'tasiz. Ular sog'lig'ingizni tekshirib, sizga yordam berishadi. Ular sizga hozirgi yoki avvalgi kasalliklaringiz, emlash qaydlaringiz va qabul qilayotgan har qanday dori vositalaringiz haqida savollar beradi. Ular, shuningdek, sizdagi har qanday jarohat, og'riq, holat yoki xavotirlar haqida ham savollar beradi.

Ba'zi tibbiy testlar, jumladan, inson immunitet tanqisligi virusi (OIV) testi, to'liq qon tahlili (CBC), C-reaktiv oqsil (CRP) testi va gepatit C virusi (HCV) qon testi majburiydir.

Agar sizning alohida ehtiyojlaringiz bo'lsa, ixtisoslashtirilgan yordam olish huquqiga egasiz.



Quyidagi hollarda xodimlarni xabardor qiling:

- kasal bo'lsangiz yoki jarohat olgan bo'lsangiz
- homilador bo'lsangiz yoki homiladorlik ehtimolingiz bo'lsa
- oilangizda alohida yordamga muhtoj a'zolar bo'lsa
- nogironligingiz bo'lsa (masalan, harakatlanish imkoniyati cheklangan, eshitish qobiliyati past yoki ko'rishda nuqsoningiz bo'lsa)
- doimo asabiy, xavotirli yoki tashvishli bo'lsangiz, uxlay olmasangiz yoki salbiy fikrlar bezovta qilsa
- ilgari zo'ravonlik yoki qiynoqlarga duchor bo'lgan bo'lsangiz
- o'zingizni xavfsiz his qilmasangiz, tahdid ostida bo'lsangiz yoki kimdandir - u notanish yoki tanish odam bo'lishidan qat'i nazar – qo'rqsangiz
- o'zingiz istamagan ishlarni qilishga majbur bo'lgan bo'lsangiz yoki majburlanayotgan bo'lsangiz
- diningiz, sevgan insoningiz, kiyinish yoki o'zingizni tutish tarzingiz tufayli o'zingizni xavfsiz his qilmasangiz
- agar siz 18 yoshga to'lmagan bo'lsangiz va bu yerga ota-onangizsiz, yolg'iz yoki boshqa oila a'zolaringiz bilan kelgan bo'lsangiz.

Ixtisoslashtirilgan yordam faqat Qabul qilish va integratsiya agentligi xodimlari sizning alohida ehtiyojlaringizdan xabardor bo'lgandagina ko'rsatilishi mumkin.



Ixtisoslashgan sizga quyidagi maqsadlarda savollar beradi:

- alohida ehtiyojlaringizni baholash uchun
- siz uchun **qaysi ixtisoslashtirilgan yordam** eng mos ekanini aniqlash uchun

Bu **alohida ehtiyojlarni baholash** deb ataladi.



Tarjimon, agar kerak bo'lsa, siz tushunadigan tilda muloqot qilishingizga yordam beradi.



Agar sizga ixtisoslashtirilgan yordam kerak bo'lsa, **Qabul qilish va integratsiya agentligi** xodimlariga murojaat qiling.

Vakolatli organlar sizni ushbu yordamga muhtoj deb hisoblagan muddat davomida siz ushbu yordamni olasiz.

Siz shifokorga, hamshiraga va ixtisoslashtirilgan xodimlarga ishonishingiz va ular bilan erkin gaplashishingiz mumkin. Barcha ma'lumotlar maxfiy saqlanadi, ya'ni sizning roziligingizsiz boshqalarga oshkor qilinmaydi.

Faqatgina istisno - bu sizning yoki boshqa birovning hayoti xavf ostida bo'lsa yoki qonun talab qilgan hollarda.

BOLALARNING TA'LIM OLISH HUQUQI

18 yoshga to'lmagan barcha bolalar – o'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham - ta'lim olish huquqiga ega.

Ularga til darslari kabi yordam ko'rsatiladi.



Ota-onalar farzandlarini maktabga yuborishga majburdirlar.

MEHNAT QILISH HUQUQI

Vaziyatingizga qarab, Litvada xalqaro himoya so'rab bergan arizangiz ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin 6 oydan so'ng mehnat qilish huquqiga ega bo'lishingiz mumkin.

Qabul qilish va integratsiya agentligi xodimlari sizga Litvada amal qiladigan qoidalar haqida ma'lumot beradi.



Ayrim istisnolar mavjud, masalan, agar siz vakolatli organlar bilan hamkorlik qilmasangiz, sizga mehnat qilishga ruxsat berilmaydi.

[Agar siz ishlayotgan bo'lsangiz va qabul markazida joylashgan bo'lsangiz yoki xususiy turar joyda joylashish uchun pul nafaqasi olayotgan bo'lsangiz, turar joyingiz uchun xarajatlarning bir qismini to'lashingizga to'g'ri kelishi mumkin.



14 yoshga to'lmagan barcha o'g'il va qiz bolalarga mehnat qilishga ruxsat etilmaydi.

TIL KURSLARI VA KASB-HUNAR TAYYORGARLIGI

- Vaziyatingizga qarab, vakolatli organlar sizdan quyidagilarda ishtirok etishingizni soʻrashi mumkin:
- til kurslarida,
- siz yashayotgan jamiyat haqida kurslarda (qonunlar, qoidalar va madaniyat haqida),
- yangi koʻnikmalarni oʻrganish kurslarida (kasbiy tayyorgarlik).
- Siz quyidagilarda ishtirok etishingiz mumkin:
- til kurslarida,
- siz yashayotgan jamiyat haqida kurslarda (qonunlar, qoidalar va madaniyat haqida),
- yangi koʻnikmalarni oʻrganish kurslarida (kasbiy tayyorgarlik).



Xodimlar sizga ushbu kurslar va ularni qachon boshlashingiz mumkinligi haqida maʼlumot beradi.

➤ XALQARO HIMOYA SO'RAB ARIZA BERUVCHI SHAXS EKANLIGINGIZNI TASDIQLOVCHI HUJJAT



Sizga xalqaro himoya so'rab murojaat qilgan shaxs ekanligingizni tasdiqlovchi rasmiy hujjat beriladi, u Chet el fuqarosining ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomasi deb ataladi. Ushbu hujjatda sizning ismingiz va shaxsiy ma'lumotlaringiz ko'rsatiladi. Uni har doim o'zingiz bilan olib yurishingiz kerak.

Bu yo'l hujjati emas.

Diqqat! Uni yo'qotib qo'ymaslikka harakat qiling va boshqa birovga berib yubormang.

➤ SIZ QAYERDA JOYLASHASIZ?

Xalqaro himoya so'rab bergan arizangiz ko'rib chiqilayotgan davrda qayerda joylashishingiz ko'plab omillarga bog'liq.

Qayerda joylashganingizdan qat'i nazar, quyidagi huquqlarga egasiz:



- **xavfsiz bo'lish huquqiga:** hech kim, shu jumladan xodimlar ham, sizga tahdid qilishga, sizni haqorat qilishga yoki sizga zarar yetkazishga haqli emas;



- **turmush o'rtog'ingiz, rafiqangiz, farzandlaringiz va 18 yoshga to'lmagan aka-uka va opa-singillaringiz bilan yoki har kuni parvarishga muhtoj bo'lgan voyaga yetgan qarindoshingiz bilan birga joylashishga;**

- **agar siz har kuni parvarishga muhtoj bo'lgan voyaga yetgan shaxs bo'lsangiz, qarindoshlaringiz bilan birga joylashishga;**



- **agar oila a'zolaringiz qayerdaligini bilmasangiz, ular bilan aloqa o'rnatish va ularni topishga harakat qilish uchun yordam olish.**

Quyidagi hollarda rasmiy shikoyat qilishingiz mumkin:



- xodimlardan biri sizga tahdid qilgan, sizni haqorat qilgan yoki sizga zarar yetkazgan bo'lsa.
- yashash sharoitlari va/yoki taqdim etiladigan xizmatlar yetarli emas yoki talab qilinadigan standartlarga javob bermaydi.
- sizning yoki boshqalarning xavfsizligiga ta'sir qiluvchi xavfsizlik muammolari mavjud.

Qabul qilish va integratsiya agentligi sizga rasmiy shikoyatni qanday taqdim etish haqida ma'lumot beradi.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun siz har doim vakolatli organlarga, nodavlat tashkilotlarga yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar agentligiga murojaat qilishingiz mumkin.

Vaziyatingizga qarab, vakolatli organlar sizning ma'lum bir joyda (masalan, muayyan qabul markazida) joylashishingiz kerakligi haqida qaror qabul qiladi.



Sizga ushbu muayyan joydan ayrim cheklovlar bilan chiqishga ruxsat beriladi. Sizning ushbu muayyan joyda ekanligingiz muntazam ravishda tekshiriladi.

Vakolatli organlar bu borada bir nechta sabablarga ko'ra qaror qabul qilishi mumkin. Masalan:

- qochib ketish xavfingiz mavjud bo'lsa;
- boshpana so'rovingizni ko'rib chiqish uchun boshqa davlat mas'ul bo'lishi mumkin bo'lsa va vakolatli organlar sizni qochib ketadi deb hisoblasa;
- siz ushbu mamlakatni ruxsatsiz tark etgan bo'lsangiz, qaytarilgan bo'lsangiz va yana qochib ketishingiz xavfi mavjud bo'lsa.

Vakolatli organlar ushbu qarorni sizga o'zingiz tushunadigan tilda yozma ravishda yetkazadi. Ular sizga huquqlaringiz, majburiyatlaringiz va agar ushbu qarorga rioya qilmasangiz yuzaga keladigan salbiy oqibatlar haqida ma'lumot beradi.

Ushbu qaror ustidan shikoyat qilishingiz mumkin.

Siz vakolatli organlardan cheklangan muddatga boshqa joyda qolishga ruxsat so'rashingiz mumkin. Vakolatli organlar so'rovingizni ma'qullashi yoki rad etishi mumkin. Agar so'rovingiz rad etilsa, ushbu qaror ustidan shikoyat qilishingiz mumkin.

Diqqat! Agar siz belgilangan joyda qolish haqidagi qarorga va joriy etilgan cheklovlarga rioya qilmasangiz hamda yana qochib ketishingiz xavfi mavjud bo'lsa, ushlab turishingiz mumkin.

➤ **ARIZA BERUVCHI SHAXSNI USHLAB TURISH MUMKIN BO'LGAN HOLATLAR**

Ushlab turish - bu siz erkin tark eta olmaydigan maxsus muassasaga joylashtirilishingizni anglatadi. Vakolatli organlar sizni ushlab turish uchun asosli sababga ega bo'lishi shart. Ular sizning holatingizda boshqa hech qanday chora mumkin emasligiga ishonch hosil qilishi kerak. Sud qaror qabul qilishdan oldin sizning shaxsiy holatingizni ko'rib chiqadi.



Ushlab turish uchun asoslar, masalan, quyidagilar bo'lishi mumkin:

- boshpana so'rab bergan arizangizga oid muhim jihatlarni (masalan, shaxsingizni) ushlab turmasdan turib tekshirib bo'lmasa;
- siz belgilangan joyda qolish majburiyatiga rioya qilmasangiz va yana qochib ketishingiz oqibatida vakolatli organlar siz bilan bog'lana olmasligi xavfi mavjud bo'lsa;
- siz boshpana so'rab bergan arizangizni ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'gan YI+ mamlakatiga o'tkazish to'g'risida qaror olgan bo'lsangiz va o'tkazish amalga oshirilishidan oldin qochib ketishingiz xavfi mavjud bo'lsa;
- siz xavfsizlikka tahdid solsangiz.

Agar ushlanib tursangiz, ushbu qaror ustidan shikoyat qilishingiz mumkin. Shuningdek, bepul yuridik yordam va vakillikni so'rash huquqiga egasiz.

➤ QABUL QILISHDAGI MAJBURIYATLARINGIZ NIMALARDAN IBORAT?



Quyida siz rioya qilishingiz shart bo'lgan ayrim majburiyatlar keltirilgan.

- ✔ Ushbu mamlakat qonunlariga rioya qiling.
- ✔ Litva hududida qoling va vakolatli organlarning ruxsatisiz boshqa YI+ mamlakatiga bormang.
- ✘ Vakolatli organlar siz qolishingiz kerak deb belgilagan geografik hududni yoki muayyan joyni ruxsatsiz tark etmang.
- ✔ Vakolatli organlar bilan to'liq hamkorlik qiling va ularning ko'rsatmalariga rioya eting.
- ✔ Siz joylashgan joyning qoidalariga rioya qiling.
- ✔ Boshqa yashovchilarni, xodimlarni va boshqa shaxslarni hurmat qiling.
- ✔ Vakolatli organlarga moliyaviy mablag'laringiz haqida ma'lumot bering.
- ✔ Vakolatli organlarga joriy manzilingiz va aloqa ma'lumotlaringiz (telefon raqami, elektron pochta), shuningdek ulardagi har qanday o'zgarishlar haqida ma'lumot bering, shunda ular siz bilan har doim bog'lana oladi.
- ✔ Vakolatli organlar belgilagan majburiy integratsiya kurslarida ishtirok eting.

➤ AGAR MAJBURIYATLARINGIZGA RIOYA QILMASANGIZ, NIMA YUZ BERADI?

Qabul qilish va integratsiya agentligi sizning holatingizni baholaydi va ayrim turdagi yordamni kamaytirish yoki bekor qilish haqida qaror qabul qilishi mumkin. Qabul qilish va integratsiya agentligi bunday qaror haqida sizga yozma ravishda ma'lumot beradi va qaysi turdagi yordam kamaytirilishi yoki bekor qilinishini ko'rsatadi.



Diqqat!


Quyidagi hollarda sizga kamroq yordam ko'rsatilishi mumkin, masalan, agar:

- vakolatli organlar siz qolishingiz kerak deb belgilagan geografik hududni yoki muayyan joyni ruxsatsiz tark etsangiz;
- vakolatli organlar bilan hamkorlik qilmasangiz
- siz moliyaviy resurslaringiz haqida yolg'on ma'lumot bersangiz
- siz joylashgan joyingiz qoidalarini buzsangiz
- siz majburiy kurslarda qatnashmaysiz
- siz boshqa bir YI+ mamlakatida boshpana so'rab ariza bergan bo'lsangiz va o'sha davlatdan chiqib ketgan bo'lsangiz.

Agar siz zo'ravonlik qilsangiz, boshqalarga tahdid qilsangiz yoki joylashgan joyingiz qoidalarini takroran yoxud jiddiy ravishda buzsangiz, **olayotgan yordamingizdan mahrum bo'lishingiz mumkin.** Bunday holda, vaziyatga aralashish uchun politsiya chaqirilishi ham mumkin.



➤ AGAR VAKOLATLI ORGANLARNING RUXSATISIZ BOSHQA YI+ MAMLAKATIGA BORSANGIZ, NIMA YUZ BERADI?



Litvada:

- boshpana so'rab bergan arizangizni ko'rib chiqish jarayoni to'xtatilishi mumkin.

Siz ruxsatsiz borgan YI+ mamlakatida:

- vakolatli organlar sizni ruxsatsiz tark etgan mamlakatga qaytarish haqida qaror qabul qilishi mumkin

Vakolatli organlar sizni qaytarish to'g'risidagi qaror haqida ma'lum qilgan paytdan e'tiboran, siz ayrim huquqlardan foydalana olmaysiz, masalan:

- siz ko'plab **xizmatlar va yordam turlaridan foydalana olmaysiz;**
- sizga **ishlash uchun ruxsat berilmaydi**
- sizga **til kurslarida yoki yangi ko'nikmalarni o'rganish kurslarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi.**

➤ RUXSATSIZ TARK ETGAN YI+ MAMLAKATIGA QAYTARILGANINGIZDAN KEYIN NIMA YUZ BERADI?



Vakolatli organlar sizning muayyan joyda joylashishingiz kerakligi haqida qaror qabul qilishi mumkin va sizning u yerda ekanligingiz muntazam ravishda tekshiriladi. Sizga ushbu muayyan markazdan ayrim cheklovlar bilan chiqishga ruxsat beriladi.

▶ SIZ VAKOLATLI ORGANNING QARORI USTIDAN SHIKOYAT QILISHINGIZ MUMKIN



Agar vakolatli organlar ariza beruvchi sifatidagi huquqlaringizni cheklash haqida qaror qabul qilsa va siz buni adolatsiz deb hisoblasangiz, ushbu qaror **ustidan shikoyat qilishingiz mumkin**.

Agar vakolatli organlar quyidagilar haqida qaror qabul qilsa, siz shikoyat qilishingiz mumkin:

- turar joy va boshqa qabul qilish bo'yicha yordamni olish huquqiga ega emasligingiz haqida
- sizga ko'rsatilayotgan qabul qilish bo'yicha yordamni kamaytirish yoki bekor qilish haqida
- muayyan geografik hududni yoki muayyan joyni vaqtincha tark etish haqidagi so'rovingizni ma'qullamaslik haqida
- ma'lum bir joyda (masalan, muayyan qabul markazida) joylashishingiz majburiyligi va undan faqat ayrim cheklovlar bilan chiqishingiz mumkinligi haqida
- sizni ushlab turish haqida
- Litvada apellyatsiya sud organiga berilsa.

Agar siz YI+ga a'zo boshqa bir mamlakatga vakolatli organlarning ruxsatisiz borgan bo'lsangiz va u yerda ayrim qabul qilish huquqlaridan mahrum etilgan bo'lsangiz, ushbu qaror ustidan o'sha mamlakatda shikoyat qilishingiz mumkin.

SIZ YURIDIK YORDAM OLIHINGIZ MUMKIN

Agar vakolatli organlarning sizni qabul qilish huquqlarini cheklash to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilmoqchi bo'lsangiz, vaziyatingizga qarab sizga bepul yuridik yordam va vakillik ko'rsatilishi mumkin.

Bu yuridik maslahatchi yoki advokat sizga yordam berishini anglatadi. Yuridik maslahatchilar yoki advokatlar sudya oldida sizga yuridik yordam ko'rsatadi, manfaatlaringizni himoya qiladi hamda vakolatli organlar va sudyadan mustaqildir. Shuningdek, o'z hisobingizdan yuridik maslahatchi yoki advokatga murojaat qilishingiz mumkin.



Vakolatli organlar sizga qaror ustidan qanday shikoyat qilish tartibi haqida ma'lumot beradi.

Qo'shimcha ma'lumot, jumladan, bepul huquqiy yordam va vakillik xizmatlari haqida bilish uchun har doim vakolatli organlarga, nodavlat tashkilotlarga yoki BMTning Qochqinlar bo'yicha agentligiga murojaat qilishingiz mumkin.

Agar Litvadagi vakolatli organlar 18-sahifada tushuntirilgan holatlar sababli sizga ko'rsatilayotgan qabul qilish bo'yicha yordamni kamaytirish yoki bekor qilish haqida qaror qabul qilsa, siz ayrim huquqlarga ega bo'lasiz. Masalan, siz shifokor yoki hamshira yordamidan foydalanishingiz, tibbiy yordam olishingiz, ayrim turdagi yordamni (masalan, oziq-ovqatlar) olishingiz hamda vakolatli organlar qaroriga ko'ra tunash uchun joy bilan ta'minlanishingiz mumkin.

Yordam turi sizning shaxsiy holatingiz va ehtiyojlaringizga bog'liq bo'ladi.

Agar siz ruxsatsiz borgan boshqa YI+ mamlakatining vakolatli organlari sizga ko'rsatilayotgan qabul qilish bo'yicha yordamni bekor qilish haqida qaror qabul qilsa, keyinchalik oladigan yordamingiz turi shaxsiy holatingiz va ehtiyojlaringizga bog'liq bo'ladi.

➤ **SIZ YURIDIK YORDAM OLISHINGIZ MUMKIN**



Agar vakolatli organlarning sizni qabul qilish huquqlarini cheklash to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilmoqchi bo'lsangiz, vaziyatingizga qarab sizga bepul yuridik yordam va vakillik ko'rsatilishi mumkin.

Bu yuridik maslahatchi yoki advokat sizga yordam berishini anglatadi. Yuridik maslahatchilar yoki advokatlar sudya oldida sizga yuridik yordam ko'rsatadi, manfaatlaringizni himoya qiladi hamda vakolatli organlar va sudyadan mustaqildir. Shuningdek, o'z hisobingizdan yuridik maslahatchi yoki advokatga murojaat qilishingiz mumkin.



Vakolatli organlar sizga qaror ustidan qanday shikoyat qilish tartibi haqida ma'lumot beradi.

Qo'shimcha ma'lumot, jumladan, bepul huquqiy yordam va vakillik xizmatlari haqida bilish uchun har doim vakolatli organlarga, nodavlat tashkilotlarga yoki BMTning Qochqinlar bo'yicha agentligiga murojaat qilishingiz mumkin.

ALOQA MA'LUMOTLARI

Agar sizda savollar bo'lsa yoki bu yerda joylashgan davringizda yordamga muhtoj bo'lsangiz, quyidagi bo'limlarda ishlaydigan xodimlarga murojaat qilishingiz mumkin:

qabul qilish bo'yicha vakolatli organ



Reception and
Integration
Agency

✉ info@piia.lt ☎ +370 602 49364

boshqa tegishli vakolatli organ

Migratsiya
departamenti

✉ info@migracija.gov.lt ☎ +370 707 67000

boshqa tegishli vakolatli organ

Davlat chegaralarini
qo'riqlash xizmati

✉ dvks@vsat.vrm.lt ☎ +370 707 59305

Shuningdek, quyidagi masalalar bo'yicha savollaringiz bo'lsa, ushbu tashkilotlarga ham murojaat qilishingiz mumkin:

tibbiy yordam xizmati



Qabul qilish va integratsiya agentligi

✉ info@piia.lt ☎ +370 602 49364

yoki agentlikdagi ixtisoslashgan xodimlarga
murojaat qiling

psixologik va ijtimoiy yordam



Vilnyus arxiyepiskopligining Caritas:

✉ kulturunamai@vilnius.caritas.lt

☎ +370 673 48052

Qabul qilish va integratsiya agentligi

✉ info@piia.lt ☎ +370 602 49364

yoki agentlikdagi ixtisoslashgan xodimlarga
murojaat qiling

huquqiy maslahat, yordam va vakillik



Davlat tomonidan kafolatlangan yuridik yordam:

✉ teisines.paslaugos@piia.lt ☎ +370 602 49364

Litva Qizil Xoch Jamiyati: yuridik maslahat

✉ legal@redcross.lt; oila a'zolari va

qarindoshlarini qidirish va bog'lash

✉ tracing@redcross.lt

BMT QBA (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha agentligi)

boshpana izlovchilar va qochqinlarning manfaatlarini hamda huquqlarini himoya qiladi.



Litvadagi BMT QOKB haqida - BMT QOKB Litva

BMT QOKB ning Shimoliy va Boltiqbo'yi mamlakatlari bo'yicha vakolatxonasi (Stokgolm, Shvetsiya):

☎ +46 10 10 12 800 (Dushanba – Juma, Stokgolm vaqti bilan 10.00-12.00)

BMT QOKB ning Aloqa idorasi (Vilnyus, Litva): ☎ +370 5210 7416 (Dushanbadan jumagacha, Vilnyus vaqti bilan 9.00-17.00) ✉

swestprotection@unhcr.org

Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMT)
Vilnyus ofisi: ixtiyoriy qaytish va reintegratsiya yordamida yordam

✉ iomvilnius@iom.int ☎ +370 8 001 2342

Litva Qizil Xoch Jamiyati: monitoring

✉ stebesena@redcross.lt ☎ +370 682 16597

Agar shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj bo'lsangiz yoki hayotingiz xavf ostida qolsa, ushbu raqamga bepul qo'ng'iroq qilishingiz mumkin:



shoshilinch tibbiy yordam: 112



politsiya: 112

MENING QAYDLARIM

MENING QAYDLARIM



Ushbu broshyura faqat ma'lumot uchun mo'ljallangan. U o'z-o'zidan huquq va majburiyatlarni vujudga keltirmaydi. Ushbu materialning asosiy qismini Yevropa Ittifoqining Boshpana masalalari bo'yicha agentligi (EUAA) taqdim etgan bo'lib, mazkur broshyuradan nusxa ko'chirish va unga o'zgartirish kiritishga faqat Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar uchun EUAA tomonidan ruxsat beriladi. EUAA Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar yoki boshqa mas'ul uchinchi shaxslar tomonidan ushbu broshyuraga kiritilgan ma'lumotlarning aniqligi, mazmuni, to'liqligi, qonuniyligi yoki ishonchliligi uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Ushbu broshyuradagi ma'lumotlardan qanday foydalanilishidan EUAA ham, uning nomidan harakat qiluvchi hech bir shaxs ham javobgar emas.